



SCIENCE TIME

JANUBIY QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI TABIIY-GEOGRAFIK BELGILAR ASOSIDA VUJUDGA KELGAN GIDRONIMLARNING GEOMORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

Kamolov Azizbek

Ajinoz nomidagi NDPI 1-bosqich doktoranti

E-mail: kamolovazizbek0707@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Qoraqalpog‘iston hududidagi gidronimlarning morfologik xususiyatlari ochib berilgan. Mazkur hududdagi suv obyektlari va ularning nomlanish xususiyatlari tasniflangan. Qoraqalpog‘istonning janubiy tumanlari gidronimlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Gidronim, daryo, arna, ko‘l, yap, toponim, quduq, buloq, kanal.

Аннотация: В данной статье рассматриваются морфологические особенности гидронимов на территории Южного Каракалпакстана. Водные объекты в этом районе и особенности их наименования классифицированы. Объяснено, что гидронимы южных районов Каракалпакстана имеют свои особенности.

Ключевые слова: гидроним, река, ручей, озеро, плотина, топоним, колодец, родник, русло.

Abstract: This article reveals the morphological characteristics of hydronyms in the territory of Southern Karakalpakstan. Water bodies in this area and their naming features are classified. It is explained that the hydronyms of the southern districts of Karakalpakstan have their own characteristics.

Key words: hydronym, river, stream, lake, dam, toponym, well, spring, channel.

КИРИШ.

Istalgan bir gidronimning nomlanishida o‘sha xalqning so‘zlarni tanlashi, nomlashdagi topqirligi, zehning kuchliligi va yuksak ma’naviyati aks etgan. Toponimika sohasida tadqiqot olib borgan olimlar gidronimlarni eng qadimgi toponimlar sifatida e’tirof etishadi. Masalan, respublikamizdagi Amudaryo va Sirdaryoning qadimiy nomlanishi istalgan osori-atiqalarimizning yoshi bilan bellasha oladi.

МЕТОДЛАР.

Markaziy Osiyodagi eng katta daryo-Amudaryo qadimgi yunon tarixchisi Geradot (miloddan avvalgi II asr – milodning asrida) keyinroq yashab o‘tgan yunon tarixchi olimlari asarlarida Oks (yoki Oksos) deb nomlangan. Ba’zi tarixchi olimlar ana shu Oks (ba’zan Akes) Amudaryoning eng qadimgi turkiy nomi-O‘kuz ya’ni “daryo” so‘zining o‘zi deb hisoblashadi. Avestoda yoki boshqa bir



SCIENCE TIME

tarixiy manbalarda ushbu daryoning Ranxa, Raxa, Aranxa, Arang degan qadimgi nomlari uchraychi. Arab xalqlari uni Jayxun “jayxun” (daryo) den nomlashgan. Jayxun nomi yaxudiyarning muqaddas kitobi bo‘lmish “Tavrot” da Jixon daryosiga nisbat berib atalgan. “Boburnoma” asarida Amudaryo “Amu daryosi”, “Amu suyi” tarzida uchraydi. Zahiriddin Muhammad Bobur 1503-yilda Movarounnahrda Qobul tomonga ketayotganida “Amu suyini Uyoch (hozirgi atalishi Ayvaj) guzaridin o‘tgandi”. [1.102] Qoraqalpog‘iston Respublikasi tarkibida shu nomdagi tuman mavjud.

ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ.

Sh.Yoqubov tomonidan Alisher Navoiy asarlari onomastikasi doirasida gidronimlar ham tadqiq etilgan tadqiqotchi Alisher Navoiy asarlari tilida uchraydigan gidronimlarni quyidagi guruhlariga ajratgan va lisoniy jihatdan tahlil qilgan:

- 1) okean, dengiz va ko‘llarning nomi;
- 2) daryolar, buloqlar nomn:
- 3) ariqlar, anhorlar nomi;
- 4) boshqa xil suv inshootlarining nomlari (bandlar, ko‘priklar).

Mazkur guruhlar doirasida Rumu Farang dengizi, Bahri Hind, Aras, Amu, Dajla, Nil. Frot, Chashmai Sabz, Parap korizi, Injil arig‘i, Juni Navro‘ziy kabi dengiz, daryo, buloq, koriz, ariq nomlari izohlangan. [7.37]

R.A.Ageyevaning «Ko‘l va daryo nomlarining kelib chiqishi» kitobiga so‘z boshi yozgan E.M.Murzayev shunday qayd qilgan: «gidronimlar vaqt eroziyasiga kam duchor bo‘ladi, qadimiy, shu sababdan asl shakli va mazmunini tiklash ancha qiyin bo‘lgan toponimlar guruhiga kiradi. Ularning bu xususiyati tarixchi, tilshunos va geograflarda katta qiziqish uyg‘otib, ularga uzoq o‘tmishga nazar tashlash imkonini beradi». [2.45]

Kuzatishlarimizning dalolat berishicha, gidronimlarning shakllanishi, avvalo, xalqning dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq. Suv ob‘ektlari dastlab sodda tarzda nomlangan, ya‘ni suv ob‘ekti turini bildiruvchi so‘z, ayni vaqtda,



SCIENCE TIME

uning maxsus nomi ham sanalgan: Ariq, Ko‘l, To‘g‘on, Anhor, Soy kabi hozirda ham Arna (Bux. v. Shofirkon t.), Anhor (Tosh. sh.), Buloq (Nam. v. Pop t.) kabi gidronimlarning mavjudligi buni tasdiqlaydi. Nomlovchi (nominator) suv ob‘ektlari va inshootlariga nom (atoqli ot) berishda ularga xos biror xususiyatni, jihatni motiv qilib oladi. Bu jarayonda suv ob‘ektlari va inshootlarimning joylashish o‘rni, tuzilishi, shakli, ularni bunyod etgan shaxslarning nomlari, mazkur hudud atrofida o‘sadigan o‘simliklar, daraxtlar, yashaydigan hayvon va jonzotlar yoki suvning belgi-xususiyatlari motiv vazifasini bajaradi. [7.53]

Dehqonchilik madaniyatining o‘shishi bilan suv ob‘ekti va inshootlarining turi, mikdori ham ortib borgan. Suv ob‘ektlari turli belgi-xususiyatlari bilan farqlanib, har biri o‘ziga xos tarzda nomlangan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi toponimlari orasida gidronimlar alohida o‘rin tutadi. Ularning nomlanishida turli xil omillar sabab bo‘lgan. Shu sababdan gidronimlar qanday so‘zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida gidronimlarning nomlanishiga sabab bo‘lgan omillarni ko‘rib chiqamiz:

1. Kishi ismlari asosida vujudga kelgan gidronimlar. Asosan bunday suv obyektlarining (ariq, quduq, buloq, kanal va boshq.) paydo bo‘lishida (qazilishida) rahbarlik qilgan shaxslar nomi bilan atalgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi janubiy tumanlaridan Amudaryo tumanida: *Otajonboy* (ko‘l), *Eshonyap* (ariq), *Seityap* (ariq), *Sho‘rsapa* (ko‘l), *Tajig‘aliko‘l* (ko‘llar), *Eshonyap* (ariq), *Insegen* (ariq), *Alili* (ariq), *Qilichniyozboy* (kanal), *Uyshunyap* (kanal), *Xo‘jako‘l* (kanal), *Nazarxonarna* (kanal).

Beruniy tumanida: *Sultono‘zak* (irmoq), *Sauxumyargan* (kanal), *Jag‘alboyliyap* (kanal), *Chapayyap* (ariq), *Qozoqyap* (ariq), *Ayozko‘l* (ko‘l).

Ellikqal‘a tumanida: *Oyselyav* (ko‘l), *Narimjonbuva-1* (tarmoqlovchi kanali NT-1) *Amirobodiyap* (kanal).

Yuqorida keltirilgan gidronimlarda qo‘llangan “jab” so‘zi ma‘nosi quyidagicha izohlanadi:



SCIENCE TIME

Yap – qoraqalpoq tilida “jap” – ichidan suv oqizish uchun qazilgan arna kanal” ma’nosida ishlatiladi [3, 176]. Ba’zi olimlar bu termini fors-tojik tilidagi *ob* “suv,daryo” so’zi bilan bog‘liq degan taxminlar mavjud.

Arna (qadimgi eroncha Ar(ir) — suv, sanskritcha arnas — suv oqimi) — O’rta Osiyoda keng tarqalgan tarixiy termin. Munis va Ogahiy asarlarida, vaqf va meros hujjatlarida, Xiva xonlari arxivi hujjatlarida „Arna“ so’zi kanal nomiga qo‘shilib kelgan. Mas, Alfoqarna. Arna atamasi zamirida „suv yo‘li“ degan ma’no yotadi. Xorazmda bosh kanal “arna” deb ataladi: Qilichboyarna, Otaliqarna, Shovotarna, Urgancharna va hakozi.

Buloq — gidronimini turkman, qirg‘iz tillarida “*bulaq*” tarzida, o‘zbek tilida “*buloq*”, qozoq, no‘g‘ay tillarida *bulaq* tarzida ishlatiladi. Buloq termini yuqorida ta’kidlangan tillarning geografik nomlarida ham uchraydi.[4.192] Qoraqalpoq tilining izohli lug‘atida “*bulaq*” so’zi “tog‘ yoki yer ostidan chiqadigan suv o‘rni” tarzida izohlangan. Bu termin mazkur hududdagi suv ob’ektlari nomlari tarkibida saqlangan bo‘lib, ular kammahsuldir: Amudaryo tumanidagi *Buloqko‘l* kabi.

2. Suvning rang-tusi va xil-xususiyatiga, maza-ta’miga qarab nomlangan gidronimlar. Bu gidronimlarning nomlanishida oq, qora, ko‘k, qizil kabi ranglar o‘zak so‘z sifatida ko‘proq uchraydi.

Amudaryo tumanida – *Sarikungul kanali*, *Qorachungulko‘l ko‘li*, *Qorako‘z*, *Aqaltin arig‘lari*. *Sho‘rsapa*, *Sho‘rsayap*, *Uzunsu*, *Sarsapa*, *Saqarko‘l*, *Ashshiko‘l*, *Yangiyap ko‘llari*.

Beruniy tumanida – *Ko‘ko‘zak*, *Ko‘kdaryo irmog‘lari*, *Aqsaqalacha arig‘i*, *Cho‘rtanliko‘l*, *Zeyko‘l*, *Aqshako‘l*, *Aqko‘l ko‘li*.

Ellikqal’a tumanida – *Aqshako‘l* (ko‘llar), *Oysaloka*, *Oyqala ko‘llari*, *Uysalang*, *Bo‘zyap*, *Qozoqashayap kanallari*.

To‘rtko‘l tumanida – *Tozako‘l*, *Qamishli*, *Ayritom ko‘llari*, *Suvyorgan*, *O‘ngqirg‘oq tuyamo‘yin*, *Paxtaarna*, *Kaltaminor* va *Toza Kaltaminor kanallari*.

Ba’zi olimlarning talqiniga ko‘ra gidronimlar tarkibida qo‘llangan ranglar turlicha ma’noni ifoda etishi mumkin. Chunonchi, toponomist olim N.Oxunovning



SCIENCE TIME

qayd etishicha, doimo oqib turadigan, tog'dan, muzliklardan keladigan qor suvlari bilan to'yingan, o'z tabiiy o'zanida oqadigan, yozda qurimaydigan, rangi oq tusda bo'lgan, ichishga yaroqli suvga nisbatan oq so'zi ishlatilgan va ular – oqbuloq, oqdaryo, oqsoy deb nomlangan. Shu o'rinda Amudaryo tumanidagi:

Sho'rcha – gidronim tarkibidagi cha - fors-tojik tilidagi choh so'zining o'zgargan shakli. Sho'rchoh - ma'nosi – sho'r, achchiq suvli choh, quduq. Azalda suv havzasi, ya'ni quduq nomi bo'lgan, keyinchalik qishloq nomiga aylangan. Boshqa izoh: Sho'rcha nomining suvi sho'r soyning yoqqasidagi kichik qishloq degan talqini ham bor.[5.186]

Ko'pincha tog' yonbag'rlarida, vodiylarda yer ostining sizot suvlaridan to'yingan holda, juda sekin oqqanligi sababli tiniq qoramtir tusda, tabiiy o'zan qismida oqmaydigan, kanal qazib oqizilgan suvlarga nisbatan esa qora so'zi qo'llanilgan. Ular qorasuv, qoradaryo, qorasoy nomlari bilan yuritilgan. Ko'ksuv, Ko'kdaryo gidronimlari haqida shuni aytish joizki, bu xildagi gidroobyektlarning ko'lami chuqur, suvning oqish sur'ati sokin, rangi shishadek ko'm-ko'k, g'oyat tiniq va toza bo'ladi. Gidronimlarning nomlanishida qizil, sariq, yashil kabi ranglardan ham foydalanilgan.

3. Miqdor va son-sanog'iga qarab nomlangan gidronimlar. Bu xususiyatdagi gidronimning miqdorini va son-sanog'ini belgilashga qaratilgan. Ko'pincha ikki, besh, olti, qirq, ellik, yuz, ming, gala, to'da so'zlaridan foydalangan holda gidronimlar yasalgan.

Amudaryo tumanida - *Qirqo'zakyap* arig'i, Ellikqal'a tumanida - *Qirqqiz* (ko'llar), *Ellikqal'a*, *Qirqqiz* kanallari shular jumlasidandir.

4. Aholi manzilgohlari nomi bilan ataladigan gidronimlar.

Amudaryo tumanida - Choyko'l, Toshyp, Bo'zyop, Qumyop. Beruniy tumanida Oltinsoy, Qaqrulisoy, Kichiksoy, Qazgansoy, Dalako'l, Cho'rtanliko'l, Ellikqal'a tumanidagi Aqchako'l, Tozabog'yop, Sarabiy, Aqchako'l, Amirobod, Turkmanko'l, To'rtko'l kabi ushbu tumanlarda aholi manzilgohlari bilan bog'liq geografik obyektlar mavjud.



SCIENCE TIME

Gidrooykonimlar, ya'ni suv obyektlariga qarab nomlangan aholi punktlari. Bunday oykonimlarni respublikaningning hamma hududlarida uchratish mumkin, buning natijasi o'laroq aholi punktlari suv bor joyda barpo etiladi. Qishloq va shaharlarning ariq - soylar bilan atalishi ham shundan darak berib turadi. Soy, buloq, ariq, quduq, suv kabi indikator terminlar respublika aholi punktlari nomlari tarkibida tez-tez uchrab turadi.

5. Urug'-qabila nomlari bilan bog'liq bo'lgan gidronimlar.

Amudaryo tumanida – *Mang'itarna, Qipchoqarna, Xo'jako'l, Uyshunyap* kanallari, Beruniy tumanida – *Naymanyap*,

6. Maishiy turmush buyumlari va hayvon, o'simlik nomlari bilan bog'liq gidronimlar.

Amudaryo tumanida: *Shomishko'l, Divanko'l, Bo'zsu, Qozonko'l*. Ellikqal'a tumanida: *Bo'zyap*. Beruniy tumanida: *Cho'rtanliko'l, Bo'zyap, To'rtko'l* tumanida: *Qamishli ko'li, Paxtaarna kanallari* shular jumlasidandir.

Qoraqalpog'istonning janubiy tumanlaridagi suv manbalari bilan bog'liq tarzda shakllangan geografik nomlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Ularning juda katta qismi daryo, ariq, irmoqlar, yaplar, buloqlar, ko'llar va hokazo, inson qo'li bilan bunyod etilgan gidrotexnik inshootlar bilan bog'liq. Darhaqiqat, suv obyektlari, ya'ni daryo, ko'l, quduq, ariq, kanallar va boshqa gidronimik obyektlar suvining rangi, sho'rliigi, tozaligi, chuqurligi va hajmi katta-kichikligiga qarab turlicha nom olgan. Suvi tiniq bo'lsa *Oynako'l, Oyqala, Oynabuloq, Ko'ksuv, Tozako'l* deyiladi. Suvning sho'rlik darajasi yuqori bo'lganda *Ashshiko'l, Sho'rsayap* qordan boshlangan suvlar *Oqsuv, loyqarog'i – Ayronko'l, Sarisuv* demakdir.

E.M.Murzayev shunday qayd qilgan: “gidronimlar vaqt erroziyasiga kam duchor bo'ladi, qadimiy, shu sababdan asl shakli va mazmunini tiklash ancha qiyin bo'lgan toponimlar guruhiga kiradi. Gidronimlarning bu xususiyati tarixchi, tilshunos va geograflarda katta qiziqish uyg'otib, ularga uzoq o'tmishga nazar tashlash imkonini beradi” [5.313].



SCIENCE TIME

ХУЛОСА.

Xulosa qilib aytganda, janubiy Qoraqalpog‘iston toponimlari orasida gidronimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning nomlanishida turli xil faktorlar sabab bo‘lgan. Shu boisdan gidronimlar qanday so‘zlar asosida yaratilganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilash ilmiy nuqtai nazardan dolzarb sanaladi. Ularni ilmiy jihatdan o‘rganish va to‘g‘ri talqin qilish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”, -Toshkent, Yangi asr avlodi. 2018. 102-b.
2. Мурзаев Э.М. Основные направлений топонимических исследований. // Принципы топонимики. -М.: 1964.
3. Қарақалпақ тилиң түсиндирме сөзлиги. I т. – Нөкис, 1982. – 400 б.; II т. 1984. – С. 386.
4. Молчанова О.Т. Географический термин булах в топонимии // Ономастика Поволжья.Саранск, 1976. – 360 с.; О гидронимических терминах Горного Алтая. – М.: 1970. -С. 400.
5. Накимов Q. M., Топонимика. -Toshkent, Tafakkur avlodi. 2020. - 352 b
6. Бургутли О. Бу кўҳна Зомин. -Тошкент:. 1996.
7. Носиржон Улуқов. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи, -Тошкент, Фан. 2008.
8. Қораев С. Географик номлар маъноси. -Тошкент:. 1978.
9. Қораев С. Этнонимика. -Тошкент:. 1979.
10. Қораев С. Географик терминлар ва тушунчалар изоҳи луғати. -Тошкент:. 1979.
11. Қораев С. Ўзбекистон ойконимларини социал-иқтисодий географик аспекда ўрганиш. Ўз. ГЖА. 18-жилд.-Тошкент:. 1997.
12. Алибеков Л.А. Ўрта Осиё табиий географияси. -Самарқанд. 2006.
13. Дўсимов З. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. -Тошкент:. 1977.
14. Ғуломов П. Жўғрофия атамалари ва тушунчалари изоҳли луғати. - Тошкент:. 1994.

INTERNET SAYTLAR:

1. <http://geo.1september.ru>
2. <http://wgeo.ru>
3. www.ref.nnov.ru